



BOJXONA ISHIDA ZAMONAVIY AXBOROT TEXNOLOGIYALARINI
QO‘LLANILISHI

Xoshimov O‘tkirjon Xakimjon o‘g‘li

Tel: +998889571904

Email: hoshimovotkirbek133@gmail.com

Annotatsiya: Maqolada bojxona axborot texnologiyalar va ularni qo‘llashdagi muamolar, bojxona ishida axborot kommunikatsiya texnologiyalarini qo‘llashning zarurati va bojxona nazorati samaradorligini pasaytirishi haqida ma‘lumot keltrilgan

Abstract: The article provides information about customs information technologies and problems in their use, the need to use information and communication technologies in customs work, and the reduction of the effectiveness of customs control.

Абстрактный: В статье представлена информация о таможенных информационных технологиях и проблемах их использования, необходимости использования информационных и коммуникационных технологий в таможенной работе, снижении эффективности таможенного контроля.

Kalit so‘zlar: bojxona siyosati, axborot texnologiyasi, raqamliq iqtisodiyot, bojxona ombori, bojxona chegarasi.

Bugungi kunda Respublika rahbariyati tomonidan bojxona organlariga qo‘yilayotgan talab bojxona ishini jahon andozalari darajasiga olib chiqishni, bu borada bojxona nazoratining yangi zamonaviy shakl va uslublarini, jumladan, avtomatlashtirilgan axborot texnologiyalarini tatbiq etish hisobiga bojxona ishi samaradorligini yanada oshirishni taqozo etmoqda.

Bojxona ishida axborot kommunikatsiya texnologiyalarini qo‘llashning zarurati. Butun dunyoda bojxona organlari faoliyati samaradorligini aniqlashning asosiy me‘yori bo‘lib, tovarlarni bojxona rasmiylashtiruvi va nazoratidan o‘tkazish uchun sarflangan vaqt hisoblanadi. Shu sababli, bojxona rasmiylashtiruvi va



nazoratini avtomatlashtirish bojxona organlari oldida turgan asosiy vazifalardan biri bo'lib qolmoqda. Bu masalani oddiy so'z bilan tushuntiradigan bo'lsak, ko'p vaqt va qo'l mehnati talab etadigan nazorat jarayonlarini kompyuter texnologiyasi zimmasiga yuklatish deb qarash to'g'ri bo'ladi.

Ma'lumki, bojxona chegaralarini kesib o'tuvchi tovar va transport vositalarining bojxona nazoratini amalga oshirish jarayonlari juda ko'p qo'l mehnatini, qog'oz sarfini va eng muhimi - rasmiylashtirilgan hujjatlarni davlat bojxona qo'mitasiga va hududiy boshqarmalarga nazorat uchun yetkazib berilishida uzoq vaqt talab etadi.

Bu esa bojxona nazorati samaradorligini pasaytiradi. Ushbu jarayonlarni kompyuter texnologiyalari yordamida avtomatlashtirish esa tovar va transport vositalarining harakatini va ularning bojxona rasmiylashtiruvi natijalarini real vaqt davomida nazorat qilish va zarur hollarda tezkor choralar ko'rish imkonini beradi. Shu munosabat bilan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2006-yil 9-martdagi "Bojxona idoralari faoliyatini tashqil etishning qo'shimcha choralari to'g'risida"gi PP-302-sonli Qarorida bojxona idoralari faoliyatiga zamonaviy axborot texnologiyalarini tatbiq etish asosiy vazifa qilib qo'yildi.

Ushbu Qarorga muvofiq, DBQ zimmasiga: - 2006-yilning 15-apreligacha yagona axborot tizimidan, shuningdek bojxona identifikatsiyasi vositalaridan foydalangan holda, tovarlar va transport vositalarining tranzit bo'yicha bojxona posti orqali olib kirilishini nazorat qilish hamda olib chiqib ketilishini bojxona postida takroran tekshirish tizimini joriy etish;

- O'zbekiston aloqa va axborotlashtirish agentligi bilan birgalikda bojxona komplekslari va postlari yagona axborot tizimi rejimida faoliyat ko'rsatishini ta'minlash, bunda bojxona nazorati ostida bo'lgan tovarlar bo'yicha axborotni yig'ish, saqlash, ishlab chiqish texnologik jarayonlarini avtomatlashtirish vazifalari yuklatildi. Ushbu vazifalarning ijrosini ta'minlash maqsadida, Davlat bojxona qo'mitasi tomonidan "O'zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo'mitasining axborot texnik siyosati Konsepsiyasi" ishlab chiqildi va DBQ Hay'atining 2006-yil



27- iyuldagi 4/6- sonli qarori bilan tasdiqlandi. Mazkur Konsepsiya quyidagi yo'nalishlarda ish olib borishni ko'zda tutadi:

1. DBQning yagona axborot uzatish tizimini yaratish.
2. DBQning yagona avtomatlashtirilgan axborot tizimini shakllantirish.
3. Ma'lumotlar xavfsizligi va ularni muhofaza qilish tizimini yaratish.
4. Bojxona komplekslari va postlarini zamonaviy bojxona nazorati texnik vositalari bilan ta'minlash.

DBQning yagona axborot uzatish tizimini yaratish maqsadida DBQ Markaziy apparati, uning 15 ta hududiy boshqarmalari va 165 ta bojxona komplekslari va postlarining deyarli barchasi bugungi kunda yagona axborot uzatish tizimiga birlashtirildi.

Buning natijasida bojxona idoralari faoliyatiga real vaqt birligida ishlovchi zamonaviy dasturlarni tatbiq qilish imkoniyati yaratildi. Bojxona ishida qo'llanilayotgan avtomatlashtirilgan axborot dasturlari. "O'zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo'mitasining axborot texnik siyosati Konsepsiyasi" asosida bir qator dasturlar amaliyotga kiritilgan:

1. Bojxona yuk deklaratsiyalari avtomatlashtirilgan axborot tizimi (ASOD) (nazorat ob'yekti – BYuD, BQD, BQT).
2. "Avto" AAT (nazorat ob'yekti – bojxona chegarasini kesib o'tuvchi avtotransport vositalari va ularda tashilayotgan yuklar, ushbu yuklarning nazorati YuYeBNQK (SMR, TIR) orqali amalga oshiriladi).
3. "Temir yo'l" AAT (nazorat ob'yekti – temir yo'l transportida tashilayotgan yuklar, ushbu yuklarning nazorati YuYeBNQK orqali amalga oshiriladi).
4. "Bojxona ombori" AAT (nazorat ob'yekti – bojxona omborida saqlanayotgan tovarlar - vaqtinchalik saqllov, bojxona ombori rejimlari ostida yoki biron bir rejimga olinmasdan saqlanayotgan tovarlar).
5. "Bojxona to'lovlari" AAT – TIF qatnashchilarining tegishli to'lovlarni amalga o'z vaqtida va to'liq amalga oshirilishi ustidan nazoratni olib boradi.



6. “Bojxona ko‘rigi dalolatnomasi” AAT (nazorat ob‘yekti – bojxona ko‘rigidan o‘tkazilishi lozim bo‘lgan tovarlar bo‘lib, ushbu nazorat BKD asosida amalga oshiriladi).

7. Narx ma’lumotlari byulleteni – import qilinayotgan tovarlarning bojxona qiymatini to‘g‘ri aniqlash uchun yordam beradi.

8. “GERMES” - elektron hujjat aylanuvini amalga oshiradi.

9. Elektron raqamli imzo.

10. Bojxona qoidalari buzilishlari hisobini yuritish (nazorat ob‘yekti – bojxona qoida buzilishlari bayonnomalari).

11. Tashqi savdo operatsiyalari (TSO) yagona elektron axborot tizimi (nazorat ob‘yekti – tashqi savdo shartnomalari).

12. Elektron deklaratsiyalash portali – BYuDlarni Internet tarmog‘i orqali qabul qilish uchun xizmat qiladi.

13. Faktorli tahlil – bir qator omillarni e’tiborga olgan holda qilingan ishlarni tahlil qilish va istiqbol rejani belgilashda yordam ko‘rsatadi;

14. “Tovarlarining bojxona ekspertizasi” AAT – tovarlarning bojxona ekspertizasi hisobi, ularning TIF TN kodini to‘g‘ri belgilash va majburiy ekspertizadan o‘tkazilishi lozim bo‘lgan tovarlar ustidan nazoratni olib boradi.

15. “e-Hisobot” dasturi – belgilangan hisobotlarni tuzish va elektron almashinuvni amalga oshiradi.

Yuqorida ko‘rsatilagan dasturlarning 8 tasiga O‘zbekiston aloqa va axborotlashtirish agentligidan Davlat axborot tizimi sifatida tegishli sertifikatlar olingan. Bojxona rasmiylashtiruv bosqichlarida axborot dasturlarining qo‘llanilishi. Ushbu dasturlar bilan bojxona rasmiylashtiruvini amalga oshirishning deyarli barcha bosqichlari qamrab olingan.

Jumladan:

1-bosqich. TIF qatnashchisi eksport-import operatsiyalarini amalga oshirish uchun tashqi savdo shartnomasini tuzadi va ushbu shartnomani vakolatli bankdan hamda bojxona organlaridan ro‘yxatdan o‘tkazadi. Mazkur jarayonda ma’lumotlar “TSO” dasturiga kiritiladi.



2-bosqich. Chyegara bojxona postlari orqali kirib kelgan tovar va transport vositalariga tegishli hujjatlar bojxona postiga taqdim etilgach, ma'lumotlar "Avto" yoki "Temir yo'l" YaAAT dasturlariga kiritiladi.

3-bosqich. Tovar va transport vositalari albatta bojxona ko'rigidan o'tkaziladi va ko'rik natijalari "Bojxona ko'rigi" AAT dasturiga kiritiladi.

4-bosqich. Qabul qiluvchi bojxona postiga tovar va transport vositalari yetkazilganda bojxona ta'minlovi vositalarining butligi tekshirilib, "Avto" yoki "Temir yo'l" AAT dasturlaridan nazoratdan yechiladi. Tranzit va eksport yuklar respublika hududidan chiqarib yuboriladi. Import tovarlar bojxona ko'rigidan o'tkaziladi hamda ko'rik dalolatnomalari tuziladi. Ko'rik dalolatnomalari bo'yicha ma'lumotlar "Bojxona ko'rigi" AATga kiritiladi.

5-bosqich. Qabul qiluvchi bojxona postida tovarlar tegishli bojxona rejimiga (masalan, vaqtincha saqlash) rasmiylashtiriladi va BYuDlarning elektron nusxasi "ASOD" dasturiga kiritiladi. Tovarlar bojxona omboriga joylashtirilgan taqdirda tovarlar haqidagi ma'lumotlar "Bojxona ombori" dasturiga o'tkaziladi.

6-bosqich. Tovarlarini erkin muomalaga chiqarish rejimiga rasmiylashtirishda BYuDning elektron nusxalari "ASOD" dasturiga kiritiladi. Tovarlar bojxona ekspertizasiga tushgan hollarda ekspertiza natijalari "Tovarlarining bojxona ekspertisasi" dasturiga avtomatik ravishda tushadi.

TIF qatnashchisining bojxona organlari depozit hisob raqamlariga o'tkazgan pullari "Bank-kliyent" dasturi orqali "Bojxona to'lovlari" dasturida nazorat qiladi. Oddiy so'z bilan aytganda, bojxona protseduralarini avtomatlashtirish natijasida ularni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan vaqt sezilarli darajada qisqarishiga erishilib, tovarlarni bojxona nazorati va rasmiylashtiruvidan o'tkazish ishlari tezlashadi va pirovard natijada tovarlarning bojxona chegarasi orqali olib o'tilishi tezlashishiga erishiladi.

Xulosa va takliflar

Yuqorida ta'kidlab o'tilgan fikr va mulohazalardan xulosa qilgan holda raqamli bojxonaga quyidagicha ta'rif berish maqsadga muvofiq bo'ladi. Raqamli bojxona - bojxona sohasiga raqamli texnologiyalarni joriy etish orqali bojxona



chegasini kesib o'tadigan insonlar, tovarlarga nisbatan bojxona operatsiyalari jarayonini to'liq raqamli transformatsiya qilish, avtomatlashtirish bilan barcha bojxona tartib-taomillarini inson omilisiz amalga oshirishni nazarda tutadi. Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash joizki, dunyo hamjamiyati bojxona xizmatlari faoliyatida zamonamizda to'rtinchi sanoat inqilobi deb nomlanuvchi yangi texnologiyalar (sun'iy intellekt, katta ma'lumotlar, blokcheyn, narsalar interneti va boshqalar) shiddat bilan amaliyotga tadbiiq etib kelinmoqda. Bojxona sohasida yuzaga keladigan huquqiy munosabatlarni tartibga solishda ham raqamlashtirishning ahamiyati katta. Bojxona organlari xizmat faoliyatiga raqamli texnologiyalarni keng joriy etish orqali tashqi iqtisodiy faoliyat qatnashchilari, jismoniy shaxslar va bojxona xodimlari o'rtasida bojxona huquqiy munosabatlaridagi mavjud hamda paydo bo'lishi mumkin bo'lgan bo'shliqlar hamda kamchiliklarni bartaraf etish imkoniyatini beradi.

REFERENCES

- 1.O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi 2020 yil (manba: <https://uza.uz/oz/politics/zbekiston-respublikasiprezidenti-shavkat-mirziyeevning-oliy-25-01-2020>)
- 2.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 5 iyundagi "Bojxona ma'muriyatchiligini isloh etish va O'zbekiston Respublikasi davlat bojxona xizmati faoliyatini takomillashtirish to'g'risida"gi PF-6005-son farmoni
- 3.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 5 oktyabrdagi "Raqamli O'zbekiston — 2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish choratadbirlari to'g'risida"gi PF-6079-son farmoni
- 4.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 3 iyuldagi "O'zbekiston Respublikasida raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ3832-son Qarori
- 5.Sergei Mozer, Ph.D. at law - MONOGRAPH «DIGITAL CUSTOMS. WCO Experience».
- 6.<https://customs.gov.ru/activity/programmy-razvitiya/strategiya-razvitiya-fts-rossii-do2030-goda>



7. <https://mag.wcoomd.org/magazine/wco-news-79/digital-customs-the-opportunities-ofthe-information-age/>

8. <http://customs-academy.net/?p=12345>

9. Кадыркулов М. А., Мозер С. В., Липатова Н. Г. Всемирная таможенная организация как современный институт совершенствования таможенного администрирования и упрощения процедур торговли: монография. М.: РИО Российской таможенной академии, 2017. 172 с

10. <https://cyberleninka.ru/article/n/innovatsii-tamozhennogo-regulirovaniyavnesheekonomicheskoy-deyatelnosti-rossiyskoy-federatsii/viewer>

11. http://www.eurasiancommission.org/ru/act/tam_sotr/edinoe_okno/Documents/001_17.06.19_Mozer-Sergei_Digital-Customs.pdf